INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
ISSN: 2181-3868 | SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

KOREYS TILI LEKSIKASIDA O‘Z VA O‘ZLASHGAN QATLAM

Raxmonova Mubarro Tolibovna
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.15681295

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys tili leksikasining o‘z va o‘zlashgan qatlamlari tahlil qilinadi. O‘zlashma so‘zlarning kelib chiqish manbalari, ularning tilda tutgan o‘rni va lingvistik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Koreys tilidagi xorijiy so‘zlarni qabul qilish bo‘yicha mavjud tadqiqotlar orqali shuni ko‘rish mumkinki, turli xil ingliz lug‘atlari 1930-yillarda allaqachon olingan va keng qo‘llanilgan. Tilga kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar dastlab bir tildan ko‘chgan deb taxmin qilinadi va bu so‘zlarni chuqur o‘rganilganda bu so‘zlarning kelib chiqish tarixi umuman boshqa millatga tegishli bo‘lishi mumkinligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, maqolada koreys tilidagi o‘z so‘zlari va o‘zlashma qatlamning o‘zaro ta’siri ham tahlil qilinib, ularning funksional jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: koreys tili, leksika, o‘z so‘zlar, o‘zlashma so‘zlar, lingvistik xususiyatlar, fonetik moslashuv, semantik o‘zgarish, funksional rol, leksik qatlamlar, til ta’siri.

Аннотация. В данной статье анализируются собственный и заимствованный слои лексики корейского языка. Рассматриваются источники заимствованных слов, их роль в языке и лингвистические особенности. Существующие исследования заимствованных слов в корейском языке показывают, что различные английские слова уже были заимствованы и широко использовались в 1930-х годах. Предполагается, что заимствованные слова изначально пришли из одного языка, однако при детальном изучении можно обнаружить, что их происхождение может быть связано с совершенно другим народом. Также изучается взаимное влияние исконных и заимствованных слов корейского языка, а также их функциональные аспекты.

Ключевые слова: Корейский язык, лексика, исконные слова, заимствованные слова, лингвистические особенности, фонетическая адаптация, семантические изменения, функциональная роль, лексические слои, языковое влияние.

Annotation. This article analyzes the native and borrowed lexical layers of the Korean language. It examines the sources of loanwords, their role in the language, and their linguistic characteristics. Existing studies on foreign words in the Korean language show that various English words had already been borrowed and widely used in the 1930s. It is assumed that borrowed words originally came from a single language, but a deeper analysis may reveal that their origin actually belongs to a completely different nation. Additionally, the interaction between native Korean words and borrowed vocabulary is analyzed, highlighting their functional aspects.

Keywords: Korean language, lexicon, native words, loanwords, linguistic features, phonetic adaptation, semantic changes, functional role, lexical layers, language influence.

Koreys tilining taraqqiyot tarixi uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, til o‘zining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy holatga yetishi davomida bir qancha tarixiy bosqichlarni bosib o‘tgan.

Antropologik tasnifga ko‘ra, koreyslar mongoloid irqining Sharqiy Osiyo hududidagi manjur-koreystipiga kiritiladi. Koreys tilining shimoliy-sharqiy, shimoliy-g‘arbiy, markaziy, janubiy-sharqiy, shimoliy va janubiy shevalari mavjud. Morfologik jihatdan agglyutinatsiya

rivojlangan. Leksik tizimining aksariyat qismini xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar hamda sanskrit, mo‘g‘ul va ingliz tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil qiladi.

Koreys tilining qadimiy asosga egaligi ko‘plab manbaalarda e’tirof etib kelinayotgan bo‘lsada, uning geneologik jihatdan qaysi til oilasiga va guruhiga mansubligi masalasi munozaralidir. Xususan, dunyo tillari geneologiyasiga oid ishlarda koreys, yapon tillari “Hech qanday tillar guruhiga kirmagan “ tillar sifatida e’tirof etilishi, D. Koppelman, G. Gyuntert, G.Yunker kabi Yevropa olimlari esa ushbu tillarni Hind-Yevropa tillariga yaqinligi haqidagi farazlarning ilgari surilish shundan darak beradi[1].

O‘tgan asrning 20-yillarida Y.D.Polivanov tomonida e’lon qilingan “Turkiy, yapon va koreys tillaridagi mosliklar” deb nomlangan turkum maqolalarida hamda Ramsted, Byotlink, Poppe va Moskva, Peterburg turkologiya maktablarining yirik vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mazkur tillarning Oltoy tillari oilasiga mansubligi qayd etiladi.

Koreys tilining rivojlanish tarixi quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

1. Qadimiy koreys tili (Miloddan avvalgi IV asr-milodiy X asr). Bu davr koreys tilining dastlabki shakllanish bosqichini qamrab oladi. Koreys tili haqidagi dastlabki yozma ma’lumotlar Xitoy yilnomalari va tarixiy hujjatlarida uchraydi. Shu davrda xitoy madaniyati va tili kuchli ta’sir o‘tkazgan. Ko‘pgina yozuvlar xitoy iyerogliflari yordamida amalga oshirilgan.

2. O‘rta davr (X-XV asr) ya’ni Koryo davri (918–1392). Bu davr koreys tilining muhim rivojlanish bosqichidir. Xitoy iyerogliflari asosida “Idu” yozuv tizimi ishlab chiqildi, bu orqali koreyscha matnlar yozish mumkin bo‘ldi. Tilda xitoy tilidan ko‘plab o‘zlashmalar kirdi. Bu davrda koreys tili tovush tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi, masalan, eski tilning qattiq va yumshoq undoshlari hozirgi shaklga kela boshladi.

3. Zamonaviy koreys tili shakllanishi (XV asr-XIX asr). Bu davr koreys tilining asosiy grammatik va fonetik qoidalari shakllangan davr hisoblanadi. Hangil yozuvining ixtiro qilinishi (1443). Koreya qirolligi Choson sulolasining to‘rtinchi qiroli Sejong Devang (Sejong buyuk qirol) tomonidan hozirgi koreys yozuvi – Hangil ixtiro qilindi. Hangil oddiy xalq uchun yozuvni osonlashtirish maqsadida yaratilgan. U koreys tilining tovush tizimiga moslashtirilgan. Hangil 1446-yilda rasmiy ravishda e’lon qilindi va Hangil orqali koreys tili Xitoy yozuv tizimidan asta-sekin mustaqillashdi.

4. Zamonaviy koreys tili (XIX asr - hozirgi davr). Bu davr koreys tilining zamonaviy shaklga kelishi bilan ajralib turadi. Yapon bosqini davrida (1910–1945) koreys tili taqiqlangan bo‘lsa-da, milliy tilni saqlash uchun yashirincha o‘rganish davom etdi. 1945-yilda Koreya ozodlikka chiqqach, koreys tili davlatning rasmiy tili sifatida qayta tiklandi.

Shimol va Janub farqlari:

Koreya ikki davlatga bo‘lingach, Shimoliy va Janubiy Koreyada koreys tilining lug‘ati, talaffuzi va ba’zi qoidalarida farqlar paydo bo‘ldi. Masalan, Shimoliy Koreyada Hangil uchun boshqa atama “Chosongil” ishlatiladi.[2]

Bugungi kunda koreys tili Janubiy va Shimoliy Koreyaning rasmiy tili bo‘lib, shuningdek, Xitoy, AQSh va boshqa mamlakatlardagi koreys diasporasi tomonidan ham keng ishlatiladi.

Etimologik tasnif - ikki asosiy leksik qatlamni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi: o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam. O‘z qatlam. Lug‘at tarkibining asosiy qatlamini, leksikaning miqdor jihatdan ustunlik qiluvchi qismini, nisbatan turg‘un, tilining o‘ziga xosligini o‘zida aks ettiruvchi leksik birliklar o‘z qatlamni tashkil etadi. Koreys tilining o‘z qatlamiga turli vaqtlarda paydo bo‘lgan so‘zlar kiradi. Ulardan ba’zilari qadim-qadimda paydo bo‘lgandir.

Lug‘at tarkibi. Koreys tilining lug‘at tarkibining uchta asosiy qatlami mavjud:

[1] Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2007. – 145 b.

[2] Iksop Lee va Robert Ramsey: The Korean Language, State University of New York Press, 2000. – 273 b.

1) o‘z qatlam so‘zlar (고유어, koyuo);

2) xitoydan kirgan o‘zlashmalar (한자어, hanjao);

3) g‘arbiy tillardan kirgan o‘zlashmalar (외래어, vere-o)

O‘zlashma so‘z - bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘zlardir. O‘zlashma so‘z ma’lum ijtimoiy-tarixiy voqealar, savdo va madaniy aloqalar tufayli bir tildan ikkinchi tilga o‘tib o‘zlashadi. Xususan, o‘zbek xalqining tojiklar bilan qadimdan bir xil iqtisodiy tuzum sharoitida, qo‘niqo‘shni bo‘lib yashab kelganligi tufayli forstojikcha so‘zlar, arab istilosi natijasida arabcha so‘zlar, O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinishi oqibatida ruscha va yevropacha so‘zlar o‘zbek tiliga kirib o‘zlashgan.

O‘zlashma so‘z dastlabki davrda neologizm xarakterida bo‘lsada, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi, xuddi o‘z so‘zdek tabiiy va aniq bo‘lishi, fonetik qayta shakllanishi, grammatik singishi, so‘z yasash tizimida faol ishtirok etishi, takror-takror qo‘llanishi tufayli uning yot elementligi sezilmay qoladi. O‘zlashma so‘zlar koreys va o‘zbek tillarida ham ko‘p uchratish mumkin. Koreys tilidagi o‘zlashma so‘zlar qatoriga asosan koreys, ingliz va xitoy tillari lug`aviy qatlamidagi so‘z bo‘g‘inlarini qo‘shish orqali yaratilgan so‘zlar, shuningdek, gaplarni qisqartirish yo‘li bilan hosil qilingan akronimlar kiradi. “Slenglar” ya’ni ayrim qisqartirilgan jargon so‘zlar ham koreys tilida neologizmlar sanaladi va ular hozirda yangi “trend” dagi so‘zlar sifatida yoshlar orasida jadal rivojlanib bormoqda. O‘zlashma so‘zlar boshqa tillardan olingan asl so‘zlar bo‘lib, qabul qiluvchi tilga deyarli bir xil fonetik moslashuvlar bilan talaffuz qilinadi. Yozuda o'zlashma so‘z aynan kiritilsa ham asl imloning qabul qiluvchi tilida qanday o'qilishiga qarab o‘zgaradi, ya’ni qabul qiluvchi til fonetikasiga moslashadi.

Chet tilidan o‘zlashgan leksemalarni ham o‘z o‘rnida shartli ravishda quyidagilarga bo‘lib o‘rganadilar: a) moslashmagan o‘zlashma so‘zlar. Ular boshqa tillardan olingan, qabul qiluvchi tilning orfografiyasiga moslashmagan so‘zlardir. Uning talaffuzi, bu so‘zlovchining kelib chiqish tilini bilishiga bog‘liq. Masalan: apparat, kompyuter; b) moslashgan o‘zlashma so‘zlar. Odada bunday leksemalar qabul qiluvchi til qoidalariga moslashadi. Masalan: xakker, gol (ing.: goal). c) ksenizmlar - Ksenizm termini yunoncha so‘z bo‘lib, “begona so‘z, hech qanday o‘zgarishsiz yozilgan yot so‘z” ma’nolarini anglatadi. Odatda bunday so‘zlarning ekvivalenti mavjud bo‘lmaydi. Masalan: lord, tolibon, software.

Koreys tilidagi o‘z qatlam so‘zlar koreys xalqining tili va madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarni qamrab oladi. Ushbu qatlamdagi so‘zlar ko‘p hollarda boshqa tillardan o‘zlashmalardan farq qiluvchi o‘ziga xos semantik, fonetik va morfologik xususiyatlarga ega.

Koreys tilida o‘z qatlam so‘zlar “nativen words” yoki “(고유어, koyuo)” deb nomlanadi. Ular koreys tilining qadimiy qatlami hisoblanib, boshqa tillardan o‘zlashmagan, balki o‘z tili doirasida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Ushbu so‘zlar koreys xalqining turmushi, madaniyati, tabiati va an’analarini aks ettiradi.

O‘z qatlam so‘zlarning xususiyatlari

Semantik xususiyatlari.

Hayotiy va kundalik xarakter: Ko‘pincha tabiat, inson hayoti, oilaviy munosabatlar va kundalik hayot bilan bog‘liq. Masalan: 나무 (namu) - daraxt, 물 (mul) - suv, 불 (bul) - olov, 하늘 (hanil) – osmon.

Abstrakt tushunchalar kam uchraydi: O‘z qatlam so‘zlarda murakkab yoki ilmiy tushunchalar deyarli yo‘q, bunday so‘zlar asosan keyinchalik xitoy va yevropa tillaridan kirib kelgan.

Fonetik xususiyatlari.

O‘z qatlam so‘zlar odatda qisqa va sodda tuzilishga ega: 이 (i) – bu, 너 (no) sen, 집 (chip) – uy.

Ohangda tabiatning ohangdorligi va so‘zning tabiiy jarangliligi seziladi.

Morfologik xususiyatlari.

Bu so‘zlar odatda ildiz shaklda bo‘ladi va boshqa affikslar bilan birikib, yangi ma’no hosil qiladi. Masalan: 가다 (kada) – bormoq, 갔다 (katda) – bordi, 가게 (kage) – do‘kon.

Tarixiy kelib chiqishi.

Koreys tilidagi o‘z qatlam so‘zlarning kelib chiqishi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Bu so‘zlar Koreys yarim orolida ilk qabilalar paytida shakllangan. Ularning tildagi rivojlanishi uch asosiy bosqichga bo‘linadi:

1. Qadimiy davr (miloddan avvalgi asrlar): Tabiat bilan bog‘liq tushunchalar paydo bo‘lgan.
2. O‘rta davr (Koryo va Choseon davrlari): Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar bilan bog‘liq so‘zlar ko‘paygan.
3. Hozirgi davr: O‘z qatlam so‘zlar saqlanib qolgan, lekin zamonaviy ilmiy tushunchalar uchun boshqa tillardan o‘zlashmalar kirib kelgan.

O‘z qatlam so‘zlarning ahamiyati.

Madaniy boylik: bu so‘zlar koreys xalqining tarixiy va madaniy boyligini aks ettiradi. O‘zligini saqlash: koreys tilining o‘zligini saqlab qolish va boshqa tillardan o‘zlashmalarga qarshi turish uchun asos hisoblanadi. Adabiyot va folklorda ishlatilishi: an’anaviy qo‘shiqlar, she’rlar va xalq hikoyalarida keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy tildagi holati. Hozirgi koreys tilida o‘z qatlam so‘zlar asosan kundalik hayotda ishlatiladi. Lekin ilmiy, texnik va iqtisodiy sohalarda xitoy va g‘arb tillaridan o‘zlashgan so‘zlar dominant hisoblanadi. Shunga qaramay, davlat tili siyosati va tilni saqlash dasturlari orqali o‘z qatlam so‘zlarni kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinmoqda.

Koreys tilidagi o‘z qatlam so‘zlarga quyidagilarni misol qilsak bo‘ladi:

강 (kang) daryo - koreys tabiatini aks ettiradi

꽃 (kkot) gul - tabiat bilan bog‘liq

바람 (param) shamol - tabiiy hodisani ifodalaydi

사람 (saram) inson - ijtimoiy tushuncha

손 (son) qo‘l - kundalik hayotda ishlatiladi.

Koreys tilida o‘zlashma so‘zlar (loanwords) keng tarqalgan bo‘lib, asosan ingliz, xitoy va yapon tillaridan olingan. Bu so‘zlar koreys tiliga integratsiya qilingan va ba’zi hollarda fonetik jihatdan moslashtirilgan. Mana ba’zi misollar:

1) ingliz tilidan:

컴퓨터 [kompyuto] – kompyuter;

인터넷 [intonet] – internet;

버스 [bosi] – avtobus.

2) xitoy tilidan:

전화 [chonhwa] - telefon;

학교 [hakkyo]– maktab;

의사 [uisa]– shifokor.

3) yapon tilidan:

김밥 [kimpap] - yapon tilidagi "nori-maki"dan olingan koreys sushi turi;

라디오 [ladio] – radio.

O‘zlashma so‘zlar ko‘pincha koreys yozuv tizimi, hangul, yordamida yoziladi va mahalliy talaffuzga moslashtiriladi. Ikki yoki undan ortiq tillar aloqada bo‘lganda, ular aloqa natijasida kelib chiqqan lingvistik o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin.

Neologizmlar quyidagi tartibda tilga mutlaq kirib boradi:

1) Kelib chiqish - yangi so‘zlarni yozish tamoyili sifatida yangi so‘zlarni yaratish bosqichi;
2) Xabardorlik - Bu bosqichda odamlar neologizm mavjudligini tushunadilar, lekin u hali keng tarqalmagan bo‘ladi.
3) Diffuziya - ixtiro qilingan so‘zlardan foydalanuvchilar soni ko‘payadigan bosqich.
4) Ildizlanish - bu bosqichda yangi so‘zlar tez-tez tilga olinadi va ularning ma’nolari aniq belgilanadi.
5) Foydalanish modasi bir qancha kishilar aniq ma’noli yangi so‘zni ishlatadigan bosqich.
6) Iqtibos - neologizmlarning ommaviy axborot vositalarida va radio eshittirish, gazeta va romanlar kabi ma’lumotlarda qo‘llanilishi bosqichi.
7) Ro‘yxatga kiritish- standart til sifatida tan olinishi bosqichidir.

Koreys tili lug‘aviy qatlamidagi neologizmlarning aksariyatini chetdan ya’ni ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlar tashkil qiladi. Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Bugungi kunda ingliz tilining biznes, madaniyat, siyosat, ta’lim va jamiyatning boshqa sohalarida obro‘-e'tibori va kuchining kattaligi tufayli inglizlashuv global hodisaga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Sharq, 2010.
2. Dadaboyev.H. O‘zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019.
3. Shuxratovna, B. S. (2024). O ‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.
4. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO ‘Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
5. Kamarova, M. (2022). 우즈벡어와 한국어 파생법 관련 논문 사례 연구 Case studies of uzbek and korean derivation papers. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 258-263.
6. Azizova, S. (2024). KOREYS TILIDA KESIMNING TURLARI VA UNING GAPDA ISHLATILISHI XUSUSIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 467-470.
7. Melikova, U. (2024). KOREYS TILIDA BOG ‘LOVCHILARNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATI. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(9), 86-87.
8. Vakhabova, M. (2023, December). 한국어와 러시아어의 과거 시제에 있어서의 상 대조 분석. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 70-73).
9. Tolibov, M., & Mirzaev, S. (2024, May). THE IMPORTANCE OF TASK-BASED TEACHING IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 701-705).
10. Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 155-164.
11. Алимова, Д. (2021). ГРАММАТИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ. Academic research in educational sciences, 2(12), 1359-1366.
12. Turakulova, S. F. Differences and Similarities of Derivative Adverbs in Uzbek and Korean Languages.
13. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.
14. Хайруллаев Х. З. Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати //Номзод. дис автореферати. Тошкент. – 2001.